



ABDULLA AVLONIYNING "TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ" ASARI TAHLILI

Makhliyo Rakhmonova

*Guliston davlat pedagogika instituti Milliy g'oya va falsafa kafedrası 1-kurs
magistranti +998946773017 <https://orcid.org/0009-0006-2201-9863> e-mail:
mahliyorahmonova17@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari tahlil qilinadi. Asar o'zbek adabiyoti va madaniyatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda axloqiy va ma'rifiy mavzular, milliy qadriyatlar, insonning jamiyatdagi o'rni va burchlari yoritilgan. Maqolada asarning tuzilishi, mavzusi, g'oyaviy yo'nalishi va didaktik ahamiyati batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, Avloniyning pedagogik qarashlari hamda asarning yosh avlod tarbiyasidagi roli o'rganiladi. "Turkiy Guliston"ning milliy ma'naviyat rivojidadagi o'rni va bugungi kunda uning dolzarbligi tahlilning asosiy masalalaridan biri sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit So'zlar: Abdulla Avloniy, axloq, darslik, jadidchilik, pedagogika, ta'lim, tarbiya, yangi usul maktabi.

Аннотация: В данной статье анализируется труд Абдуллы Авлани «Турецкий Гулистан или Этика». Произведение имеет большое значение в узбекской литературе и культуре, оно затрагивает нравственно-просветительские темы, национальные ценности, роль и обязанности человека в обществе. В статье подробно анализируются структура, тема, идейная направленность и дидактическая значимость произведения. Также изучаются педагогические взгляды Авлани и роль труда в воспитании молодого поколения. Роль «Турецкого Гулистана» в развитии национальной духовности и его актуальность сегодня рассматривается как один из основных вопросов анализа.

Ключевые Слова: Абдулла Авлони, воинственность, ново методическая школа, образование, обучение, педагогика, учебник, этики.

Abstract: This article analyzes Abdulla Avlani's "Turkish Gulistan or Ethics" work. The work is of great importance in Uzbek literature and culture, it covers moral and educational topics, national values, and the role and duties of a person in society. The article analyzes the work's structure, theme, ideological direction, and didactic significance in detail. Also, Avlani's pedagogical views and the role of the work in the education of the young generation are studied. The role of "Turkish Gulistan" in the development of national spirituality and its relevance today is considered one of the analysis's main issues.

Keywords: Abdulla Avlani, combativeness, education, ethics, new method school, pedagogy, textbook, upbringing.

Bilamizki, millatlarni bir biridan ajratib turuvchi narsa bu - ularning o'ziga xos axloqiy qarashlarida mujassamlangan. Bugungi kunda taraqqiy etib borayotgan



jamiyatimizda yoshlarning axloqiy qarashlarini yaxshilashda jadidchilik harakati namoyondalarining yuksak ma'naviy meroslarini chuqur o'rganish dolzarb masalaga aylanib ulgurgan. Jumladan, Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari bunga yaqqol dalil bo'la oladi. Asarda, o'sha davrdagi axloqiy qarashlar va ta'lim-tarbiya masalalari ochib berilgan.

Abdulla Avloniy 1878-yilning 12-iyulida Toshkentda "Mergancha" mahallasida to'quvchilar oilasida dunyoga kelgan. Bolaligidan ilmga, kitob o'qishga ishtiyoqi kuchli bo'lgan. U mahalliy maktabda diniy ta'lim olgan, so'ngra o'z-o'zini tarbiyalash orqali dunyoviy fanlarni o'rgangan. Yosh bo'lishiga qaramay oilasidagi moddiy qiyinchiliklar sababli bolaligidan suvoqchilik, g'isht quyish, binokorlik, duradgorlik singari ishlar bilan shug'ullanib oilasiga yordam bergan. Bularning ortidan „Imoratchi usta“ degan nomga ham sazovor bo'lgan. U 12 yoshidan O'qchi mahallasidagi madrasada dars o'qiy boshlagan. "1891-yildan boshlab, faqat qish kunlarida o'qub, boshqa fasllarda mardikor ishladim", -deb yozadi. 14 yoshidan boshlab esa o'z zamoniga mos keladigan she'rlar yoza boshlagan. Madrasani bitirib, maktabdorlik bilan shug'ullangan. Orenburg, Qozon, Tiflisda chiqib turgan gazeta-jurnallarni kuzatib borib, 1895-yildan o'zining ijodiy faoliyatini boshlagan Avloniy «Qobil», «Shuhrat», «Hijron», «Avloniy», «Surayyo», «Abulfayz», «Indamas» taxalluslari bilan she'r, hikoya, feleton va kichik hajmli dramatik asarlar yaratgan. Aynan shu davrdan boshlab, Avloniy o'zini ma'rifatga bag'ishlashga qaror qilgan. Avloniy ma'rifatparvarlik yo'lini tanlab, xalqni savodli qilish va ularning ma'naviy darajasini ko'tarish uchun o'z hayotini bag'ishlagan.

U Toshkentda yangi usuldagi maktablar tashkil etgan va ularda dars bergan. Avloniy adabiyot va matbuot sohasida ham faol ishlab, o'z asarlari va maqolalarida ma'rifat, milliy ong va axloq masalalarini ko'tardi. U 1907-yilda o'z asarlarini nashr qilishni boshladi va xalqni milliy uyg'onish sari yetakladi. Avloniy birinchi o'zbek gazetalaridan biri bo'lgan "Shuhrat" va keyinchalik "Turon" gazetalarini tashkil etgan va ularni nashr etishga bosh-qosh bo'lgan. Bu gazetalar orqali xalqni savodxonlikka, jamiyatdagi o'zgarishlarni tushunishga chaqirgan.

O'z she'rlarini «Hijron» taxallusi bilan e'lon qildi. Maqolalarini esa «Mulla Abdulla», «Avloniy», «Abdulla Avloniy» nomlari bilan bostirdi. So'ngroq uning ko'p ishlatgan laqablaridan biri «Indamas» bo'lgan edi. [1. 10 b] 1909 yilda «Jamiyati xayriya» ochdi va mahalliy xalq bolalarining o'qib bilim olishi uchun pul yig'ib, maktablarga tarqatdi. Bu haqda hatto Orenburgdagi «Vaqt» gazetasi yozib chiqdi. 1913 yilning oxirida toshkentlik mashhur jadidlar-taraqqiyparvarlarning tashabbusi bilan «Turon» jamiyati maydonga keldi. Uning muassislaridan biri Avloniy edi. Jamiyat qoshida teatr truppasi tuzildi. Avloniy truppasi sahnalashtirgan birinchi asar Behbudiyning «Padarkush»i bo'ldi. [4. 175 b]

Abdulla Avloniy ijodi xalqni ma'rifatli qilishga, milliy ongni uyg'otishga va axloqiy tarbiyaga qaratilgan. Avloniyning mashhur asarlari sirasiga "Turkiy guliston yoxud axloq", "Adabiyot yoki milliy she'rlar", "Birinchi muallim" kabilarni ko'rsatish mumkin. "Turkiy guliston yoxud axloq" asari Avloniyning pedagogik qarashlarining eng yuksak



ifodasi desak adashmaymiz. Unda yoshlarga axloqiy sifatlarni singdirish, ularni ma'naviy yuksaklikka yetkazish g'oyalari ilgari surilgan. Avloniyning o'sha davr uchun yaratgan darsliklari ham mavjud. «Birinch muallim» 1917 yilga qadar 4 marta nashr etilgan. «Ikkinchi muallim» yuqoridagi kitobning bevosita davomi bo'lib, «Alifbodan so'ng o'qutmak uchun» yozilgan, «axloqiy hikoyalar, adabiy she'rlar ila ziynatlangan». Bu kabi darsliklari ham uning ijodini boyitishga yordam bergan. Uning asarlari nafaqat o'sha davr uchun, balki hozirgi kunda ham katta ahamiyatga ega. Avloniy o'z asarlarida ta'lim va tarbiya, milliy uyg'onish hamda axloq masalalariga urg'u qaratgan. Avloniy asarlarida ta'lim va tarbiyaga hayot-mamot masalasi sifatida qaragan. Uning eng mashhur asarlaridan biri "Turkiy guliston yoxud axloq" bo'lib, unda axloq, tarbiya va ta'limning jamiyat rivojidadagi ahamiyati ko'rsatilgan. Bu asar yoshlarni ma'naviy yuksaltirishga qaratilgan. Darhaqiqat, axloq masalasi hamma vaqt dolzarb bo'lib qoladi. Har qanday qoloq davlat yoki jamiyat avvalo ta'lim va axloqqa e'tiborini qaratsa, o'sha davlatning rivojlanish sur'ati yuqori bo'ladi.

Abdulla Avloniy o'z asarlarida ta'lim va tarbiyaning yoshlar hayotidagi ahamiyatini chuqur tahlil qilib, bu masalalarni jamiyatning rivojlanishi bilan bog'laydi. U o'z asarlarida tarbiya va ta'limni insonning shaxsiy va jamiyat oldidagi mas'uliyatini shakllantiruvchi muhim omil sifatida ta'riflaydi. Uning fikriga ko'ra, to'g'ri tarbiya olgan yoshlar kelajakda jamiyat taraqqiyotining asosiy poydevori bo'lib xizmat qiladi. Avloniy asarlarida ta'lim va tarbiya masalalarini hayot-mamot masalasiga tenglashtirgan. Tarbiya "yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir". [2. 38 b] Bu fikri bilan Avloniy yoshlarning ma'naviy va axloqiy tarbiyasi millatning hayoti yoki yo'q bo'lib ketishini belgilovchi asosiy omil deb hisoblagan. Albatta, yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlashda ta'lim va tarbiya bir-birini doimiy to'ldirib turuvchi vositadir.

Bundan tashqari, Avloniy axloqiy tarbiya masalasiga to'xtalib, yoshlarni insoniy fazilatlar – halollik, adolat, vafo, mehnatsevarlik kabi xislatlar bilan shakllantirish jarayoni sifatida qaraydi. Uning asarlarida yoshlarni axloq-odob qoidalari asosida tarbiyalash kerakligi va bunday tarbiyaning inson shaxsiyatiga ta'siri haqida keng fikr yuritgan. Shu jumladan, Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari o'zbek xalqining ma'naviy-ma'rifiy yuksalishi uchun muhim asarlar qatoriga kiradi.

Bu asarda ta'lim va tarbiya masalalari nafaqat pedagogik, balki falsafiy jihatdan ham tahlil qilingan. Bilamizki, ta'lim va tarbiya yoshlarga hayot yo'lini tanlashda yo'nalish beradi. Hukamolardan biri: - "Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdur", - demish. [3. 9 b] To'g'ri ta'lim olgan va yaxshi tarbiya ko'rgan yoshlar o'z oldiga katta maqsadlar qo'yadi va ularga erishish uchun tinmay ishlaydi.

Avloniy yoshlarni ilm-fan, axloq va ma'naviyatni birlashtirgan holda tarbiyalash orqali ularni milliy va global miqyosda yetuk shaxslar bo'lishiga turtki beradi. Avloniyning "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi" kabi fikrlari ham yuksak ahamiyatga ega.



Avloniy asarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, millatni rivojlantirish va yosh avlodni ma'rifat ruhida tarbiyalashni o'zining bosh vazifasi sifatida qo'ygan. U jamiyatda mavjud bo'lgan axloqiy buzuvchiliklar, bilimsizlik va jaholatni tanqid qilgan.

Asar axloqiy tarbiya va inson fazilatlari haqida turli mavzularni o'z ichiga olgan. Avloniy yaxshi va yomon xulq-atvorni qiyoslab, yaxshi xulqning jamiyat va shaxs rivojida o'rnini ko'rsatgan. Muallif o'z fikrlarini masallar, hikmatli so'zlar va iboralar orqali ifodalagan. Avloniy asar orqali xalqni o'zligini anglashga, ma'naviy kamolot sari intilishga va bilimsizlikni yo'qotishga chorlagan. U ilm olishning inson hayotidagi ahamiyatini urg'ulagan.

Asar ma'rifatchilik ruhida yozilib, unda G'arb va Sharq mutafakkirlarining qarashlari uyg'unlashgan. Bu bilan Avloniy o'z davrining ilg'or pedagogik va axloqiy qarashlarini yoyishga harakat qilgan. "Turkiy guliston yoxud axloq" qismlarga bo'lingan bo'lib, har bir qism ma'lum bir axloqiy mavzuni yoritadi. Unda axloq, odob-axloq qoidalari, ilm, tarbiya va milliy qadriyatlar asosiy o'rin tutadi. Avloniy asarni oddiy va tushunarli tilda yozgan.

Shu sababli u nafaqat ziyolilar, balki oddiy xalq vakillari orasida ham tushunilgan. Uning fikrlari hayotiy va dalillarga asoslangan. "Turkiy guliston yoxud axloq" Turkistonda axloqiy va pedagogik qo'llanma sifatida xizmat qilgan. U o'sha davr maktablarida ham darslik sifatida qo'llanilgan. Asar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Undagi axloqiy tamoyillar yosh avlodni tarbiyalashda va milliy qadriyatlarni asrab-avaylashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA: Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari o'zbek ma'rifatchilik adabiyoti va axloqshunoslik sohasida o'chmas iz qoldirgan nodir asarlardan biridir. Ushbu asar nafaqat axloqiy tarbiyaning nazariy asoslarini yoritadi, balki jamiyatni ma'naviy jihatdan yuksaltirishga qaratilgan amaliy ko'rsatmalarni ham beradi. Maqola davomida asarning g'oyaviy mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati va Avloniyning milliy qadriyatlarni asrab-avaylash borasidagi xizmatlari atroflicha tahlil qilindi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, "Turkiy Guliston" bugungi kunda ham yosh avlodni ma'naviyatli, axloqli va vatanparvar shaxslar qilib tarbiyalashda bebaho qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Asarning dolzarbligi va undagi fikrlarning zamonaviy jamiyat uchun ahamiyati hali-hanuz yuqori bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. Toshkent «Ma'naviyat», 2009. 10-b.
2. Jadidlar. Abdulla Avloniy [Matn]: risola./Olim Olтинbek. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b.
3. Turkiy guliston yoxud axloq [Matn] /A.Avloniy/ - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 96 6.
4. www.ziyouz.com kutubxonasi.